

TO'RA SULAYMON SHE'RIYATINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

Xakimjonova Rashida Shavkat qizi,

Guliston davlat universiteti

hakimjonovarashida@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon she'riyatining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi shoir asarlarida qo'llanilgan lisoniy birliklarning milliy-madaniy semantikasini ochib berishdan iborat. Maqolada To'ra Sulaymon ijodiga xos bo'lgan xalqona iboralar, etnografizmlar, maqol va matallar hamda qadimiy turkiy qatlamga mansub so'zlarning matndagi ma'nolari tahlil qilingan. Muallif shoir tilini milliy dunyo manzarasining tarkibiy qismi sifatida o'rganar ekan, undagi obrazlar tizimining o'zbek mentaliteti bilan bog'liqligini dalillaydi. To'ra Sulaymon she'riyatining nafaqat badiiy, balki o'zbek madaniyatshunosligi va lingvistikasi uchun ham muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Maqola filologiya yo'nalishidagi mutaxassislar, lingvokulturologiya bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar va o'zbek she'riyati ixlosmandlari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor obrazlari, milliy tafakkur, lingvomadaniyat, pretsedent, pretsedent birliklar, pretsedent nomlar, antroposentrik, lingvomadaniy birliklar, lingvokulturologiya, metafora, metonimiya, mentalitet, mental, milliy dunyo manzarasi, etnografizmlar, xalqona uslub, metafora.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию лингвокультурологических особенностей поэзии Народного поэта Узбекистана Туры Сулеймана. Основная цель исследования заключается в раскрытии национально-культурной семантики языковых единиц, использованных в произведениях поэта. В статье анализируются контекстуальные значения народных выражений (фразеологизмов), этнографизмов, пословиц и поговорок, а также слов, принадлежащих к древнетюркскому пласту, характерных для творчества Туры Сулеймана. Автор исследует язык поэта как составную часть национальной картины мира и доказывает связь системы образов в его поэзии с узбекским менталитетом. В работе демонстрируется, что поэзия Туры Сулеймана является важным источником не только для художественного слова, но и для узбекской культурологии и лингвистики. Статья предназначена для специалистов в области филологии, исследователей, занимающихся лингвокультурологией, а также для любителей узбекской поэзии.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклорные образы, национальное мышление, лингвокультура, прецедент, прецедентные единицы, прецедентные имена, антропоцентрический, лингвокультурные единицы, лингвокультурология, метафора, метонимия, менталитет, ментальный, национальная картина мира, этнографизмы, народный стиль.

Annotation. This article is devoted to the study of the linguoculturological characteristics of the poetry of To'ra Sulaymon, the People's Poet of Uzbekistan. The primary objective of the research is to reveal the national-cultural semantics of the linguistic units employed in the poet's works. The article analyzes the meanings of folk idioms, ethnographisms, proverbs, and sayings characteristic of To'ra Sulaymon's oeuvre, as well as words belonging to the ancient Turkic stratum within the context of the text. Exploring the poet's language as an integral part of the national picture of the world, the author demonstrates the connection between the system of imagery and the Uzbek mentality. It highlights that the poetry of To'ra Sulaymon serves as a significant source not only for literary artistry but also for Uzbek culturology and linguistics. The article is intended for specialists in philology, researchers engaged in linguoculturology, and enthusiasts of Uzbek poetry.

Key words: Oral folk art, folklore images, national thinking, linguoculture, precedent, precedent units, precedent names, anthropocentric, linguocultural units, linguoculturology, metaphor, metonymy, mentality, mental, national picture of the world, ethnographisms, folk style.

Kirish. Tilshunoslik sohasining qamrovi keng bo‘lib, grammatika, stilistika, fonetika, morfologiya kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Uning bugungi kunda chuqur o‘rganilayotgan yo‘nalishlaridan yana biri lingvomadaniyatshunoslik hisoblanadi. Shu boisdan qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarga qiziqish, boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, an‘analarining tilga ta‘sirini asoslash, paramiologik birliklarining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. [1]

Adabiyotlar tahlili. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda qariyb uch mingdan ortiq xalq, millat ro‘yxatga olingan va turli qit‘alarda istiqomat qiladi. [2] Bugungi zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat lisoniy qonuniyatlar doirasida emas, balki uni tashuvchi xalqning madaniyati, urf-odatlarini va milliy tafakkuri bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish ustuvor yo‘nalishga aylandi. Xususan, badiiy matnni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, muallifning individual uslubi orqali milliy dunyo manzarasini qayta kashf etish imkonini beradi. O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon ijodi bu borada alohida ahamiyatga ega. Shoir she‘riyati o‘zining xalqchilligi, folklor an‘analariga sodiqligi va o‘zbekona mentalitetni lisoniy birliklarda mahorat bilan aks ettira olganligi bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi har bir metafora yoki etnografizm ortida asrlarga tutash milliy qadriyatlar yotadi.

Tadqiqot obyekti sifatida To‘ra Sulaymonning turli yillarda chop etilgan she‘riy to‘plamlari va dostonlari olingan.

Tadqiqot predmeti esa ushbu asarlarda qo‘llanilgan lingvomadaniy birliklar, pretsedent nomlar va milliy-madaniy semantikaga ega bo‘lgan leksik qatlamni tashkil etadi.

Metodologiya maqolada qo‘yilgan masalalarni hal etish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1) Deskriptiv (tavsifiy) metod: To‘ra Sulaymon she‘riyatidagi lingvokulturemalarni aniqlash va ularning matndagi ma‘nolarini tavsiflash uchun qo‘llandi;

2) Komponent tahlil metodi: Milliy-madaniy bo‘yoqqa ega so‘zlarning semantik tarkibini o‘rganish, ulardagi yashirin madaniy semalarni (ma‘no qirralarini) ochib berishda foydalanildi;

3) Lingvokulturologik tahlilda matndagi til birliklarini milliy tafakkur va xalq og‘zaki ijodi (folklor) an‘analari bilan bog‘liqlikda o‘rganishning asosi bo‘lib xizmat qildi.

4) Kontekstual tahlilda shoir tomonidan qo‘llanilgan metafora va metonimiyalarning aynan muayyan kontekstda qanday yangi ma‘no va estetik yuk kasb etishini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan lingvokulturologik tahlillar natijasida “Qorasoch” dostonidan olingan mikromatnda til va madaniyat uzviyligini ko‘rsatuvchi jami 8 ta tayanch lingvokulturema va 3 ta paremeologik birlik (maqol va hikmat) aniqlandi hamda

ular funksional-semantik hisoblandi. Tadqiqot natijasida quyidagi qonuniyatlar va lisoniy faktlar aniqlandi:

1. Lingvokulturemalarning tematik tasnifi Matndagi lingvokulturemalar o'zbek xalqining milliy qadriyatlar tizimini aks ettirish xarakteriga ko'ra 3 ta asosiy guruhga ajratildi: **Oila va farzand konsepti:** "Nuridiydasi" va "samoda cho'lponi" birliklari ota-ona uchun farzandning hayot mazmuni va yo'l ko'rsatuvchi yulduz ekanligini ifodalovchi emotsional-ekspressiv lisoniy vositalar hisoblanadi. Ijtimoiy maqom va etalon: "O'tirganda o'rni bori, yurganda yo'li bori" hamda "yelkali Alponi" o'zbek mentalitetidagi ideal farzand, jamiyatda vazni bor shaxs va oilaning haqiqiy himoyachisi (*Alpomish arxetipi*) modellarini lisoniy muhrlagan. Harbiy-vatanparvarlik kodi: "Er ko'ksi qalqon bo'lsin" birikmasi milliy xarakterdagi fidoyilik va mardlik tushunchalarini ifodalaydi.

2. Paremiyalar va ularning kontekstual transformatsiyasi Tadqiqotda aniqlanishicha, matndagi maqollar shunchaki tayyor qolip sifatida ishlatilmasdan, dostonning umumiy g'oyaviy yo'nalishiga mos ravishda muallif yoki baxshi tomonidan ma'noviy va shakli transformatsiyaga uchragan:

Tahlil qilingan paremiya	Asl xalq varianti / Semantikasi
"Tosh otganga tosh otgin"	"Tosh otganga osh ot" (<i>Bag'rikenglik</i>)
"Qiyshiq arava yo'l buzar"	"Qiyshiq arava yo'ldan chiqar" (<i>Kuchsizlik</i>)
"Niyati g'irrom el buzar"	"Yomon niyat elni buzar" (<i>Axloqiy mezon</i>)

Muhokama. To'ra Sulaymon she'riyati o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos lisoniy xazinadir. Shoir asarlarida milliy dunyo manzarasi shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki lingvomadaniy birliklar orqali shakllangan yaxlit tizimdir. Uning tilida xalq og'zaki ijodi unsurlari, xususan, dostonchilik an'analari va baxshiyona ohanglar yetakchilik qiladi. Shoir asarlarida qo'llanilgan etnografizmlar (milliy buyum, urf-odat nomlari) o'zbek xalqining o'tmishi va bugunini bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Masalan, uning she'rlaridagi o'tov, qirchillama, tancha, boldiz kabi birliklar kitobxon ko'z o'ngida nafaqat moddiy buyumni, balki o'sha davrning butun bir madaniy atmosferasini jonlantiradi.

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, "Lingvomadaniyat" (lot. *Lingua* – til; *cultus* – hurmat qilish, ta'zim qilish; yunon. – ilm, fan) termini V.N.Teliyava rahbarligidagi Moskva frazeolog-olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida paydo bo'lgan. [3]

Shoirning "Qorasoch" dostonida: *Ertami indin o'z nuridiydasi bilan, umrining ma'nosi bilan, o'tirganda o'rni bori bilan, yurganda yo'li bori bilan, yelkali Alponi bilan, samoda cho'lponi bilan xayr-xo'shlashuvchi keksalarning gapi shunday bo'lib yotdi:*

-Tosh otganga tosh otgin, toshing yerga tushmasin. Kezi kelsa qaqshatgin, to haddidan oshmasin. Qiyshiq arava yo'l buzari, Niyati g'irrom el buzari. Buzg'indan kelgan baloga er ko'ksi qalqon bo'lsin, haqlar ishi o'ng'alib, balodan kelib g'olib, lan'ati yov qanoti qayrilib, yakson bo'lsin. [4]

Tahlil.

1. **Nuridiydasi** (ko'z nuri): Sharq madaniyatida farzand nafaqat biologik davomchi, balki ota-onaning ko'z nuriga (diydasiga) tenglashtiriladi. Bu konsept ota-onaning farzandga bo'lgan cheksiz muhabbati va unga bog'liqligini ifodalaydi.

2. O'tirganda o'rni bori, yurganda yo'li bori: Bu maqol shunchaki jismoniy mavjudlikni emas, balki ijtimoiy maqom va salmoqni anglatadi. O'zbek madaniyatida jamiyatda, davrada o'z o'rniga ega bo'lish, el hurmatini qozonish oliy fazilat sanaladi.

3. **"Alpon"** (yoki Alpomish) – o'zbek dostonchiligidagi alp, botir, himoyachi obrazi. "Yelkali Alpon" iborasi milliy mentalitetimizdagi "uyning ustuni", "ortdagi tog'", "suyanchiq o'g'lon" arxetipini jonlantiradi. Bu yerda o'g'il bolaga nisbatan milliy qahramonlik etaloni qo'llangan.

4. **Er ko'ksi qalqon bo'lsin [5]** "Er" (yigit, mard kishi) va "ko'krakni qalqon qilish" birikmasi o'zbek harbiy madaniyatiga xos. Vatan yoki oila xavf ostida qolganda erkak kishining asosiy vazifasi – himoya va fidoyilik ekanini anglatuvchi madaniy koddir.

5. **Tosh otganga tosh otgin, toshing yerga tushmasin [6]**. Asl xalq maqoli: "Tosh otganga osh ot" (Bag'rikenglik, kechirimlilik ifodasi). Doston qahramonlari urush yoki adolatsizlik ostonasida turgan keksalar bo'lgani uchun maqol "Tosh otganga tosh otgin" shakliga o'zgartirilgan. Bu munosib raddiya ber, mag'lub bo'lma, dushmanga bosh egma degan ma'noni anglatadi.

6. **Qiyshiq arava yo'l buzari [7]**. Dehqonchilik va ko'chmanchilik madaniyatida arava asosiy vosita bo'lgan. Qiyshiq (nosoz) arava nafaqat o'zi yurmaydi, balki orqadagi butun karvonning yo'lini to'sadi, umumiy tartibni buzadi. Ko'chma ma'nosi esa jamiyatda nomard, tarbiyasiz yoki sotqin odam butun elning ishiga, birdamligiga putur yetkazishi haqidagi ijtimoiy ogohlantirish ma'nosini anglatmoqda.

7. **Niyati g'irrom el buzari [8]**. G'irrom – asli o'yinlardagi qalloblik so'zi bu yerda ichi qoralik, xiyonat ma'nosida kelgan. O'zbek mentalitetida niyat tushunchasi muqaddas hisoblanadi ("Niyating yo'ldoshing", "Yaxshi niyat yarim mol"). Niyati buzuq odam ichkaridan turib butun bir elni, jamiyatni parokanda qilishi mumkinligi lingvokulturologik jihatdan dalillangan. O'zbek tilidagi maqollarning turli xarakter va turli hajmdagi to'plamlari Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqolov, K.M.Karomatova va H.S.Karomatov, M.Abdusamatov, F.Xamidxonova kabi olimlar tomonidan chop etilgan bo'lib, ular o'zbek tilidagi ko'plab maqollarni o'z ichiga qamrab olgan. [9]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, doston qahramonlari bo'lmish keksalar (oqsoollar) nutqi o'zbek nutqiy etiketining muqaddas janrlaridan biri duomand o'git (nutq) shaklida

namoyon bo'ldi. Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek tilshunosligida badiiy matnlarni faqat stilistik tomondan emas, balki antropotsentrik va lingvokulturologik paradigmalarda kesimida o'rganish naqadar muhimligini ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda dostonidagi boshqa mikromatinlar tarkibidagi frazeologik qatlam va paremiyalarni ham shu kabi etnomadaniy aspektida tadqiq etish o'zbek xalqi til boyligining madaniy kodlarini to'liq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Tosheva. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: filol. fanlari doktori falsafa d-ri.. diss. – Toshkent, 2017. 151 bet.
2. uz.wikipedia.org/wiki.
3. Sh.Usmonova lingvokulturologiya fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent, 2014. 164 bet.
4. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 233-bet
5. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 233-bet
6. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 233-bet
7. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 233-bet
8. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 233-bet
9. O'zbek xalq maqollari: 2 tomlik / Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. T.1. – Toshkent: Fan, 1987. 368-bet.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934